ma'naviy sohada ommani, eng asosiysi, quyi qatlamda ezilib yashab kelayotgan dehqonlar hayotini yaxshilash borasidagi harakatlarni asosiy masala sifatida kutardilar.

Tahlil va natijalar. Sadriddin Ayniy ta'kidlashicha, jadidlarning ma'rifatparvarlik tadbirlari xat va savoddan xabardor bo'lgan, hukumat ishlari bilan hamkorlikda bo'lmagan, adabiyot va matbuot ishlaridan xabari bo'lgan bir qisim xalqqa ijobiy ta'sir ko'rsatgan [1]. Jamiyat miqyosida o'tkaziladigan islohotlarning natijadorligini oshirish bu hukumat va xalq omixtaligi asosida amalga oshiriladigan jarayon hisoblanadi. Ikki tomon bir-birini qo'llab-quvvatlaydigan bo'lsa, islohot samarali natija bilan tugallaanadi. Bizga ma'lumki, har bir davrda xalq harakatlari o'ta uyushgan holatda harakatlana olmasa, ularning harakatlari puchga chiqishi tarixdan ma'lum. Jadidlar ma'rifatparvarlik harakatlarining milliy va ma'naviy g'oyasi ham xalqni ma'rifatli qilish, eski tuzum botqog'idan chiqarish borasidagi maqsad asosida harakatlanishiga qaramasdan, hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlanmadi.

Sadriddin Ayniy "Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar" asarida ta'kidlashicha, "Yosh buxoroliklar" 1918-yil martda amirlikda vujudga kelgan "Kolesov voqealari"dan so'ng amir tazyiqiga uchramaslik sababli qochib, Turkiston o'lkasi shaharlariga qochib, jon saqlashga majbur bo'ldi. Ularning ba'zilari Toshkent va Samarqand orqali, ba'zilari esa Rossiya shaharlariga borib joylashdi. Ular joylashgan hududlarda o'zlarining ma'rifatparvarlik ishlarini, targ'ibot va tashviqot faoliyatlarini davom ettirib, bir qator siyosiy-maxfiy idoralar tashkil qildi. "1918-yil Turkistonda parokandalik yuz berdiki, Vatandan, bor-budidan ayrilib, g'urbat va musofirlikda kun kechirdilar. Faoliyat yuritish u yoqda tursin, tirikchilik qilish ham og'ir holatga aylandi" [1].

Fayzulla Xo'jayev boshchiligida 1920-yil 15-aprelidan Toshkentda, har oy ikki bor bosilib chiqadigan "Uchqun" jurnali nashr etila boshladi [3].

Sadriddin Ayniy faoliyatini qizqa qilib ta'kidlaganda, Turkiston va O'zbekistonning o'tmish holati va muammolari o'rganiladi, vatanimiz tarixini o'rgangan holatda kelgusi o'sib kelayotgan avlodlarga munosib merosni yozib qoldirdi. Mamlakatimizni dunyoning rivojlangan davlatlar qatorida o'z yo'liga ega bo'lgan davlat sifatida ko'rish maqsadida o'zining siyosiy va ijtimoiy qarashlarini asarlari vositasida kelgusi avlodlarga qoldira oldi [5].

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib yozganda, Sadriddin Ayniy "Yosh buxoroliklar" partiyasining faol a'zosi bo'lib, o'zining islohot va inqilob haqidagi g'oya va fikrlarida ijtimoiy-siyosiy inqilob orqali davlat boshqaruvini o'zgartiradigan ma'rifatparvar jadidlar tomonida emasdi. Adibning qarashlarida jamiyat miqyosida barcha tabaqalar tengligini o'rnatgan holatda ma'rifatparvarlik g'oyalarini ishlab chiqgan holatda islohotlar o'tkazilganda, bu jarayonda barcha tabaqa vakillari qatnashib, sezilarli natijalarga erishish ko'zda tutgandi. Sadriddin Ayniyning ta'kidlashicha, siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy o'zgarishlar asta-sekinlik bilan xalqni bu jarayonlarga tayyorlagan holatda yuz berishi mumkin. Eng asosiysi, Sadriddin Ayniy jamiyatdagi yangicha qarashlar asosidagi ma'rifatparvarlik harakatlarida va bu harakat vositasida tashkil etilgan "Yosh buxoroliklar" harakati faoliyatida sezilarli o'rin qoldirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Ayniy S. Qisqacha tarjimayi holim. Asarlar. 8 jildlik, 1-jild, Toshkent, O'zbekiston davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1963, 94-bet.

(2). Xo'jayev F. Buxoro inqilobining tarixiga materiallar. Toshkent, "Fan", 1997.

(3). Холида Айни. Жизнь Садриддина Айни (краткий хронологический очерк). Душанбе, "Donish", 1982.

(4). Abdulla Badriy. Yosh buxoroliklar kimlar? Moskva, 1919, 3-bet.

(5). Temirov U. Problems of Turkistan history in the periodical publications of Sadriddin Ayni. https:// zien journals.com Date of Publication: 14-10-2023 ISSN NO: 2770-8608. Texas Journal of Philology, Culture and History.

Atakulov Mavlonbek Saitkulovich (Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti; e-mail: worldstudent@mail.ru)

YOSHLARDA SALOMATLIK VA MA'NAVIY MUHITNING IJTIMOIY AHAMIYATI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada yoshlarda salomatlik va uning hayotidagi o'rni bugungi kun jamiyatida eng muhim masalalardan biri hisoblanib, unda ijtimoiy muhitning o'rni katta ekanligiga e'tibor qaratilgan. Shu o'rinda, yoshlarning farovonlik bilan bog'liq bo'lgan salomatlik nafaqat individual hayot sifatini belgilabgina qolmay, balki jamiyat, iqtisodiyot va kelajak avlodlar rivojlanganlik darajasiga asoslangan jarayonligi ko'rsatilgan.*

Kalit so'zlar*: mahalla, yoshlar, oila axloqi, iqtisodiy tafakkur, farzand tarbiyasi, majburiyat, burch,*

ta'lim, javobgarlik, oilada ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, ma'naviy muhit.

Атакулов Мавлонбек Саиткулович (докторант Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова; e-mail: worldstudent@mail.ru)

СОЦИАЛЬНАЯ ЗНАЧИМОСТЬ ЗДОРОВЬЯ И ДУХОВНОЙ СРЕДЫ МОЛОДЕЖИ

Аннотация. *В данной статье рассматривается тот факт, что здоровье молодежи и его роль в ее жизни являются одними из важнейших проблем современного общества, и значительную роль в этом играет социальная среда. Показано, что здоровье молодых людей, связанное с их благополучием, не только определяет качество индивидуальной жизни, но и определяет уровень развития общества, экономики и будущих поколений.*

Ключевые слова: *соседство, молодежь, семейная этика, экономическое мышление, воспитание детей, обязанность, долг, образование, ответственность, духовно-нравственные ценности в семье, духовная среда.*

Atakulov Mavlonbek Saitkulovich (doctoral student of Samarkand State University named after Sharof Rashidov; e-mail: worldstudent@mail.ru)

SOCIAL IMPORTANCE OF HEALTH AND SPIRITUAL ENVIRONMENT IN YOUTH

Annotation. *This article focuses on the fact that health among young people and its role in their lives is one of the most important issues in today's society, and the social environment plays a significant role in it. It is shown here that the health of young people, which is related to their well-being, not only determines the quality of individual life, but also determines the level of development of society, the economy, and future generations.*

Keywords: *neighborhood, youth, family ethics, economic thinking, child rearing, obligation, duty, education, responsibility, spiritual and moral values in the family, spiritual environment.*

Kirish (Introduction). Salomatlik inson yashashi va mavjudligi, tirikligi bilan bog'liq fenomendir. Salomatlik fenomenini falsafiy nuqtayi nazardan anglamoqchi va tahlil qilmoqchi bo'lgan har bir kishi ko'plab savollarga duch keladi, ularga javob izlashga intiladi. Shu o'rinda, yoshlarda salomatlik va uning hayotidagi o'rni bugungi kun jamiyatida eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlashidek, "Binobarin, yurtdoshlarimizni hayotdan rozi qilish uchun birinchi o'rinda ularning sihat-salomatligini ishonchli himoya qilishga e'tibor qaratish talab qilinishi ham ayni haqiqatdir. Shuning uchun ham biz O'zbekistonda aholi salomatligini mustahkamlash, sog'liqni saqlash sohasini tezkor va samarali, xalqchil tizimga aylantirish ustida tun-u kun bosh qotirmoqdamiz" [1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Yurtdoshlarimizni sog'lom turmush tarziga amal qilishni yanada jadallashtirish hamda odamlarning tafakkur tizimini yana ham ijobiy jihatlar bilan o'zgartirishga katta e'tibor qaratish davr talabidir. Yoshlik davri inson hayotining asosiy zamonidir, chunki bu davrda jismoniy, ruhiy va ijtimoiy salomatlik asosiy o'rinda turadi. Yoshlar hayotida salomatlik ahamiyatini tushunish, ularga jismoniy faollik, sog'lom ovqatlanish, ruhiy muvozanat va ijtimoiy munosabatlarni o'rganishda yordam berishi mumkin. Bu ijtimoiy-falsafiy mohiyatga ega konsepsiyani to'g'ri anglash turli davrlarda va turli etnotibbiy tajribalarda turlicha kechganiga qaramay, inson, jamiyat va salomatlik uyg'unligi tizimida idrok etilgan. Bu borada A.Razzoqovning fikriga ko'ra, Ibn Sino nomi bilan bog'liq etnotibbiy tajribalar va ularning inson organizmi rivojini filogenetik va sotsial ta'minlashdagi o'rni zamonaviy tibbiy-falsafiy qarashlarning asosi bo'lishi mumkin [4;71-b.].

Mashhur pedagog A.S.Makarenko esa "Jinsiy tarbiya, avvalo, shaxsning ijtimoiy madaniyatini tarbiyalashdir", degan edi [6;15-b.]. Shu sababli yoshlarda salomatlik va uning hayotdagi o'rnini ijtimoiy-falsafiy tahlil qilish, o'rganilayotganligi tabiiy va mos keluvchi yondashuv bo'lib, kelajakda yurtimizning barqaror rivojlanishiga xizmat qila oladigan ijtimoiy yo'nalishlarni shakllantirishda yordam beradi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Yoshlarda salomatlik va ma'naviy muhitning ijtimoiy ahamiyati mavzusidagi ushbu maqolada analogik tahlil, analiz va sintez kabi metodlardan samarali foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Yoshlarda salomatlik nafaqat individual hayot sifatini belgilabgina qolmay, balki jamiyat, iqtisodiyot va kelajak avlodlar uchun ham muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi hamda dunyo bo'yicha yoshlarning salomatligini yaxshilashga qaratilgan ko'plab dasturlar ishlab chiqilishi, bu masalaning dolzarbligini yanada oshiradi. Salomatlik bu nafaqat kasallikning yo'qligi, balki insonlarni jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonligini ta'kidlovchi kompleks tushunchadir.

Xotin-qizlar salomatligining ilmiy-tibbiy asoslarini ham ushbu yondashuvga tayanib o'rganish mumkin. Ammo muammo kengroq, ya'ni, ilmiy-tibbiy asoslar gender falsafasi, jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi, valeologiya, antropologik valeologiya, zamonaviy fiziologiya hamda biologiya fanlari natijala-

riga ham tayanishni taqozo etadi. Bunday keng yondashuv faqat ijtimoiy-falsafa doirasida amalga oshirilishi mumkin. Shu o'rinda, salomatlikni ta'minlash va mustahkamlash yoshlarning o'zligini anglashga, shaxs sifatida rivojlanishga va ijtimoiy tizimda o'z o'rnini topishga yordam beradi. Ijtimoiy-falsafiy aspektdan qaraganda, salomatlik va uning yoshlardagi o'rni nafaqat individual masala sifatida, balki ijtimoiy tizimlar, iqtisodiy jarayonlar va madaniy qadriyatlar bilan bog'liq holatdir. Yoshlar bo'lajak jamiyatni shakllantirib, salomatlikni anglashlari va muammolarni hal qilishlari bilan ijtimoiy barqarorlikka hissa qo'shadilar. Yoshlar salomatligiga e'tibor berish, jamiyatda ijtimoiy maslahatlar uchun ochiq bo'lish yoshlarda sog'lom, baxtli va barqaror hayotni shakllantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, yoshlarda salomatlik va uning o'rni, o'zaro aloqalar, ta'lim, iqtisodiy imkoniyatlar va madaniy normalar kabi ijtimoiy omillar bilan chambarchas bog'liqdir. Yoshlarda salomatlik ijtimoiy hamda falsafiy jihatlaridan tahlil qilish orqali salomatlikni saqlash va yaxshilash uchun samarali strategiyalarni ishlab chiqish mumkin. Shuningdek, vazifalar orasida jamiyatdagi salomatlik muammolarini aniqlash hamda ularni hal qilish yo'llarini topish mumkin. Yoshlar sifatida ijtimoiy faollik, sog'lom turmush tarzi va muammolarni hal etishga tayyorgarlik bular barchasi, albatta, o'z navbatida, salomatlikka ta'sir qiluvchi muhim omillardir. Insonlarni salomatligini mustahkamlash masalalari bilan shug'ullanuvchi tibbiyotshunoslar, jismoniy diagnostika va fiziologik qayta tiklash bi-lan shug'ullanuvchi mutaxassislarning jismoniy madaniyatni hayot tarziga aylantirish masalalarini kun tar-tibiga qo'yishlari bejiz emas [2;32-b.].

Yoshlar salomatligini saqlashda sifatli tibbiy xizmatdan foydalanishni ta'minlash, genetik maslahatlar berish va aholining sog'lom turmush tarziga o'rgatish, genetik jihatdan aniqlangan kasalliklarning oldini olish muhim ahamiyatga ega. Bunday chora-tadbirlar O'zbekiston aholisi salomatligini saqlash va yaxshilashga yordam beradi. Shu o'rinda, XXI asrda nazariya sifatida shakllangan valeologiya sog'lom turmush tarzining ijtimoiy-falsafiy, tibbiy, sotsiologik, pedagogik va psixologik, dietalogik, jismoniy tarbiya bilan bog'liq jihatlarini o'rganib, inson salomatligini mustahkamlashga oid fan ekanini asosladi. Bugun u o'quv yurtlarida sog'lom avlodni tarbiyalashga qaratilgan predmetlar qatorida o'qitiladi. Ijtimoiy-gumanitar fanlar ichida hech bir predmet valeologiyadek tez e'tirof etilgan va tarbiya tizimidan tez joy olgan emas. XX asrga kelib, ekotizimdagi inqirozlar, urbanizatsiya va mexanizatsiya tufayli keng tarqalgan gipodinamiya, turli yurak-qon tomirlari, o'pka va asab kasalliklarining ko'payishi valeologiyaning ahamiyatini oshirdi, bugun ijtimoiy tarbiyadagi hech bir metod uning tavsiyalariga asoslanmay o'tmaydi [3;47-b.]. Sog'lom turmush tarzida yoshlar va xotin-qizlardagi ushbu jihatni e'tiborga olmasligi mumkin emas, chunki bu shunchaki jinslar o'rtasidagi farqlardagi keng ijtimoiy muammodir. "Jinsiy tarbiya, xususan, yoshlarni bo'lg'usi oilaviy hayotga tayyorlash masalasi juda murakkab masaladir. Bu masala keng ko'lamdagi hodisalarni o'z ichiga oladi, unda his-tuyg'ular, ongga, jamiyat belgilagan odob-axloq normalariga bevosita bog'liq bo'ladi. Jinsiy tarbiya masalasi tarbiyaning ajralmas qismidir. Yoshlarni jinsiy tarbiyalashda, ularga oilaviy hayotga to'g'ri yo'llanma berishda, avvalo, ota-onalar, muallimlar, keng jamoatchilik katta jonbozlik ko'rsatishlari zarur.

Xotin-qizlarning jismoniy va reproduktiv salomatligini ta'minlash masalalari oiladagi etnomuhitga borib taqaladi. Masalan, "oiladagi o'g'il bolalarga ijobiy munosabat ularning kelajakda oilani iqtisodiy jihatidan qo'llab-quvvatlovchi tayanch bo'lishidan umidvorlik, qiz bolalarga nisbatan an'anaviy ravishda salbiy munosabat, ularga oila uchun ortiqcha yuk sifatida qarash, xarajatlarga sababchi bo'lishidan cho'chish kabi holatlar oilada o'g'il bolalar sonining ko'payib ketishiga sabab bo'lishi mumkinligi hayotiy tajribalardan ma'lum" [5;41-b.]. Shu o'rinda, jismoniy sog'lomlashtirishning asosida sog'lom turmush tarzini shakllantirish yotadi. "Sog'lom turmush tarzi bu inson va uning salomatligi, xavfsizligani taminlashga xizmat qiluvchi ko'nikmalarga ega bo'lish asosida hayotiy faoliyatni yo'lga qo'yish hamda insonning jismoniy salomatligini yuqori darajada bo'lishiga erishishni taminlovchi ijtimoiy hodisadir" [6;11-b.].

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa qilib aytganda, yoshlarda salomatlik va uning hayotidagi o'rni ijtimoiy-falsafiy tahlilni o'z ichiga olishi, nafaqat individual yondashuv, balki jamiyatga bo'lgan ta'siri nuqtayi nazaridan ham e'tiborga olinishi kerak. Yoshlarda salomatlikni qo'llash va mustahkamlash jarayonida ijtimoiy muhit, madaniy qadriyatlar va iqtisodiy imkoniyatlar muhim o'rin tutadi. Buni amalga oshirish uchun, jamiyat farovonligi uchun xizmat qiladigan dasturlarni yaratish zarur; bu barcha yoshlar kelajagi yurtdoshlarimizning salomatligini ta'minlashga va barqaror rivojlanishga hissa qo'shadi. Yoshlar salomatligini yaxshilash, sog'lom hayot tarzini rag'batlantirish va ijtimoiy faollikni oshirish masalalari kelajakda bizni kutib turgan muammolarni hal qilishda muhim omil bo'ladi. Shu bilan birga, kelajak avlodlar uchun qo'lga kiritilgan bilim va tadqiqotlar yoshlar salomatligini o'rganishga, ularning hayotdagi o'rnini tahlil qilishga va ijtimoiy tizimda o'zaro munosabatlarning kuchayishiga hissa qo'shadi. Bu jarayonlar, kelajakka umid va yanada farovon hayotga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2024, 177-bet.

(2). Arziqulov R. Reproduktiv salomatlik asoslari. Toshkent, O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2010, 138–139-betlar.

(3). Rahimqulov K. Milliy harakatli o‘yinlar. Toshkent, “Tafakkur bo‘stoni”, 2012.

(4). Razzoqov A. Tibbiyot falsafasi. Toshkent, TDMI, 2005.

(5). Sodiqov Q. Valeologiya asoslari (o‘quv qo‘llanma). Toshkent, TDPU, 2008, 53-bet.

(6). Акбашев Т.Ф., Солдатова В.А. Всеобщая валеограмотность. Ростов-на-Дону, РДУ, 1994.

Ismoilov Sobirjon To‘rabekovich (GulDU “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari nomzodi.

SHARQONA MUSHTARAKLIK

Annotatsiya. *Koreys va o‘zbek xalqlarining o‘zaro do‘stlik aloqalariga zamin bo‘lib xizmat qilgan ikki xalqning o‘zaro o‘xshash jihatlarining ayrim qirralari faktik va analitik jihatdan yoritib berilgan. Koreys va o‘zbek xalqlarining mushtaraklik qirralari qiyoslangan.*

Kalit so‘zlar: *o‘zbek, koreys, “shabnamlar mamlakati”, “serquyosh o‘lka”, sharqonalik, mushtaraklik.*

Исмаилов Собиржон Турабекович (доцент кафедры «Общественных наук» ГулГУ, кандидат философских наук)

ВОСТОЧНОЕ СОДРУЖЕСТВО

Аннотация. *Эта статья о взаимной дружбе между корейским и узбекским народами. Некоторые аспекты взаимоотношений двух народов, послужившие основной, объяснены с аналитической точки зрения. Сопоставляются аспекты общности корейских и узбекских народов.*

Ключевые слова: *корейский, узбекский. «страна роси», «земля солнца», восточность, общность.*

Ismailov Sobirjon Turabekovich (Associate professor os the departament of “Social sciences” GulSU, candidate of philosophical sciences)

EASTERN COMMONWEALTH

Annotation. *This article is about mutual friendship between Korean and Uzbek peoples. Some aspects of the relationship between the two peoples, which served as the main are the explained from an analytical point of view. Aspects of the commonality of the Korean and Uzbek peoples compared.*

Key words: *Korean, Uzbek, “country of dew”, “land of the sun”, orientalism, community.*

Kirish. Qadimgi va yangi Sharq insoniyat tarixida juda ko‘p kashfiyot-u yangiliklarning vatani bo‘lgan. G‘arb esa hozirgacha Sharqdan o‘rganib keladi. Italyan hikmatlaridan birida ta’kidlanganidek, “Quyosh Sharqdan chiqadi”. Sharq sivilizatsiyasi tarixida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan xalqlar qatorida koreys va o‘zbek xalqlari ham turadi. Agar Koreya – “Ertalabki shabnamlar mamlakati” deyilsa, O‘zbekiston – “Serquyosh o‘lka, janatmakon yurt” deb ataladi. Janubiy Koreya to‘rt “Osiyo yo‘lbarslari” bo‘lgan Tayvan, Gonkong va Singapur mamlakatlar orasida yuqori o‘rinda bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida alohida mavqega ega. Bu ikki xalq o‘rtasida juda qadimdan o‘zaro aloqalar o‘rnatilgan. XX asr so‘ngida bu rishtaning yangi bosqichi boshlandi [4;3-b.].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ushbu mavzuda tadqiqotchilar: Ahmedova M., Xan V., Bekmurodov I., Jabborov I., Irgebayev A., Osipov V., Hasan Ato Abushiy va boshqalar mavzuga oid tadqiqot olib borishgan. Ayniqsa, Hasan Ato Abushiyning “Turkiy qavmlar tarixi” kitobi va M.Ahmedova, V.Xanlarning “Falsafa” darsliklarida mavzu yuzasidan atroflich ma’lumotlar berilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada analiz va sintez, induksiya va deduksiya, tizimlilik, qiyosiy tahlil, tarixiylik, mantiqiylik usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Koreys va o‘zbek xalqlari o‘zaro aloqalarning rivojlanish omillaridan biri bu xalqlari o‘rtasidagi etnik mushtaraklikdir. Ushbu maqolamizda mazkur mushtaraklikning ayrim jihatlariga to‘xtalamiz.

Birinchidan, koreys va o‘zbek xalqlarining kelib chiqish makoni Markaziy Osiyo hududlaridir. Koreyaning qadimgi tarixlarida Qadimgi Quryo davlatining ilk kelib chiqish manzili Turon yurti ekanligi to‘g‘risida talqinlar bor. “Koreyslar ruhiy jismoniy belgilarni o‘zlarida ifodalagan bir qator mo‘g‘iliy qabilalarning avlodlari bo‘lib, Koreya yarim oroliga Markaziy Osiyodan ko‘chib kelib qolgan hisoblanishadi” [6;10-b.]. Koreyslarni, dastlab, ota-bobolari Markaziy Osiyo mintaqasida istiqomat qilib, taqdir taqozosi bilan Koreya yarim oroliga borib qolishgan [2].